

KOREYA TARIXIGA BIR NAZAR

Murodov Halim Salimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD.

murodovhalim645@gmail.com

Tel: +998906131416.

Sadriyev Muhridin Husniddin o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti, 1 Tarix 23 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14562856>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Koreya davlatchiligi tarixining bosqichlari, uning rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Koreyaning qadimgi davlati Gojoseondan boshlab, Uch Qirollik davri, Silla birlashuvi, Koryo va Choson sulolalari orqali zamonaviy Koreya davriga qadar bo'lgan jarayonlar yoritiladi. Maqolada Koreyaning madaniy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yutuqlari, shuningdek, Xitoy va Yaponiya kabi qo'shni davlatlar bilan aloqalari hamda ularning ta'siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot Koreya tarixini chuqurroq anglashga va uning bugungi kun madaniy hamda siyosiy holatiga asos solgan muhim omillarni tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Qadimgi Choson, Uch Qirollik davri, Silla, Koryo, Choson, Koreya madaniyati, Koreya davlatchiligi, Shimoliy Koreya, Janubiy Koreya, buddizm, konfutsiylik, Hangul, Koreya urushi, Xitoy va Yaponiya ta'siri.

A LOOK AT THE HISTORY OF KOREA

Abstract. This article analyzes the stages of the history of Korean statehood, its development and distinctive features. It covers the processes from the ancient Korean state of Gojoseon, through the Three Kingdoms period, the unification of Silla, the Koryo and Joseon dynasties to the modern Korean era. The article analyzes Korea's achievements in the cultural, economic and political spheres, as well as its relations with neighboring countries such as China and Japan and their influence. This study helps to understand Korean history more deeply and to understand the important factors that formed the basis of its current cultural and political situation.

Keywords: Ancient Joseon, Three Kingdoms period, Silla, Koryo, Joseon, Korean culture, Korean statehood, North Korea, South Korea, Buddhism, Confucianism, Hangul, Korean War, Chinese and Japanese influence.

КОРОТКИЙ ОБЗОР КОРЕЙСКОЙ ИСТОРИИ

Аннотация. В статье анализируются этапы истории корейской государственности, ее развитие и особенности. Охвачены процессы, начиная с древнего государства Корея Кочосон, периода Троецарствия, объединения Силла, династий Корё и Чосон и заканчивая современной корейской эпохой. В статье анализируются достижения Кореи в культурной, экономической и политической сферах, а также ее отношения с соседними странами, такими как Китай и Япония, и их влияние. Это исследование поможет глубже понять историю Кореи и понять важные факторы, лежащие в основе ее нынешней культурной и политической ситуации.

Ключевые слова: Древний Чосон, период Троецарствия, Силла, Корё, Чосон, корейская культура, корейская государственность, Северная Корея, Южная Корея, буддизм, конфуцианство, хангыль, Корейская война, китайское и японское влияние.

Sharqda insoniyat tamadduni va ilk davlatchilikning shakllanishi qadimiy davrga borib taqalishini hisobga oladigan bo'lsak, bu jarayonda qadimgi Koraya davlatchiligining ham o'z o'zni va ahamiyati juda muhim o'rinni egallaydi. Koreya yarim orolida ilk temir davridan boshlab qabilalararo uyushmalar shakllangan. Bu jarayon dastlabki markazlashgan boshqaruv tizimlarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Ayrim tadqiqotchilar ushbu uyushmalarni harbiy-siyosiy xarakterga ega deb hisoblasalar, boshqalar ularni qabilaviy ittifoqlarga asoslangan dastlabki davlat shakli deb ta'riflaydilar. Bu nuqtai nazarlar shuni ko'rsatadiki, Qadimgi Choson davlatining tashkil topishi bir vaqtning o'zida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va siyosiy konsolidatsiyaning natijasi bo'lgan. Choson davlatining asoschisi Tangun haqidagi rivoyat ko'proq koreys milliy shuurining ramziy qismi hisoblanadi. Tangunning "tog' ruhi"ga aylangani haqidagi afsona koreys xalqining tabiat bilan uyg'unlik va ruhiyatga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi.

Ammo tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan, Tangun haqidagi ma'lumotlarning asosan 1285 yilda yozilgan "Samguk Yusa" asariga asoslanganligi shubha uyg'otadi. Bu afsona ko'proq milliy o'zlikni shakllantirish uchun yaratilgan ramziy hikoya bo'lishi ehtimoli yuqori. Eramizdan avvalgi 2333 yilga oid sananing berilishi tarixiy voqealar vaqtini ancha qadimiylashtirishga xizmat qiladi. Ko'plab tarixchilar ushbu sanani real faktlardan ko'ra milliy mifologiyaga asoslangan deb baholaydilar. Shu bilan birga, Qadimgi Chosonning paydo bo'lishi bilan bog'liq mintaqaviy iqtisodiyot, madaniyat va siyosatning rivojlanishi tarixiy haqiqatdir. Tangun haqidagi afsona koreyslar orasida milliy birlikni targ'ib qilish vositasi bo'lgan. Bu kabi afsonalar xalq tarixini boyitish va milliy o'zlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan[1].

Bugungi kunda Tangunning hikoyasi Koreya madaniyatining ajralmas qismi sifatida e'zozlanadi. Tangun va Qadimgi Chosonning tashkil topishi masalasi tarixshunoslar orasida hali ham munozarali. Ba'zilar fikricha, bu afsona faqat ramziy ahamiyatga ega bo'lsa, boshqalar uni Koreyaning ilk davlatchilik asoslari sifatida ko'radi.

Koreya yarim orolining qadimgi tarixida uchta asosiy davlat – Silla, Koguryo va Pekche mavjud bo'lib, ular I asrda kuchli va mustahkam davlatlar sifatida shakllangan. Bu davrni koreys tarixchilari "Uch podsholik davri" deb atashadi. Har uchala davlat ham o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, bir-biri bilan doimiy ravishda kurashgan va vaqt-vaqti bilan ittifoqlar ham tuzgan. Bu davrda Silla, Koguryo, va Pekche davlatlari o'rtasidagi siyosiy raqobatning davom etishi, shuningdek, ularning mintaqada hukmronlik qilishda o'zaro ta'siri Koreya yarim orolining tarixiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davlatlarning tashkil topishi juda uzoq tarixiy jarayonni o'z ichiga olgan. Masalan, Sillaning 57-yildan 935-yilgacha mavjudligi, Koguryoning 37-yildan 668-yilgacha hukmronlik qilganligi va Pekchening 660-yilda tugatilganligi haqida ma'lumotlar mavjud[2]. Buddaviylik va konfutsiylik kabi diniy oqimlar bu davrning ma'naviy hayotida markaziy o'rin tutgan. Ularning Koreya madaniyati va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli nihoyatda katta bo'ldi, chunki bu dinlar o'z navbatida jamiyatdagi axloqiy, siyosiy va ma'naviy qadriyatlarni belgilab berdi.

Bundan tashqari, davlatlar o'rtasidagi madaniyatning umumlashuvi va tarixiy o'ziga xoslik Koreya yarim orolidagi siyosiy muhitni shakllantirishga yordam berdi. Bu davlatlarning asoslanishi bir qator asriy jarayonlar natijasida sodir bo'lib, aniq bir sanani belgilash mushkul.

Tarixiy manbalar, xususan, "Sam-guk sagi" (Uch podsholiklar tarixi) va Kim Busikning yilliklari, bu davr haqida ma'lumotlarni taqdim etsa-da, ularning ko'p qismi afsonaviy xarakterga ega. Shunday qilib, Koreya yarim orolidagi uchta asosiy davlatning tashkil topishi va ular o'rtasidagi siyosiy munosabatlar uzoq va murakkab tarixiy jarayonlarning mahsuli bo'lib, madaniy, diniy va siyosiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu davrni aniq sanalar bilan belgilash qiyin, chunki bu jarayonlar asta-sekin va bir-biriga ulanib rivojlangan.

Koguryo davlatining shakllanishi haqidagi afsona va tarixiy haqiqatlar orasidagi farqlarni ko'rish mumkin. 1-asrda Jumong tomonidan asos solinganini asoslashiga asoslangan rivoyatlar, asosan, Koguryoning shakllanishi haqida afsonaviy tushunchalarni yaratadi, lekin tarixiy olimlar bu davlatning birinchi paydo bo'lishini aniq sanalagan sanalarga bog'lamoqda. Koguryo davlatining poytaxti dastlab Kunneson qal'asida bo'lib, keyinchalik Pxyenya ko'chirilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, davlatning asosiy struktura va siyosiy markazlari o'zgarishi jarayonida bo'lgan.

Pekche davlati Koreya yarim orolining janubida joylashgan va uning kelib chiqishi haqida turli xil qarashlar mavjud. "Sam guk sagi"da bu davlatning tashkil topishi ikki xil qarash asosida tushuntirilgan. Birinchi qarashga ko'ra, Pekche Jumongning o'g'li Onjo tomonidan tashkil topgan, u Koguryoning asoschisi bo'lgan Jumongning o'g'li va Vorisi Yuri bilan birga, Koguryoda yashagan. Ikkinchi qarashda esa Onjo va uning ukasi Piryu Jumongning o'gay o'g'illari deb ta'kidlanadi, va ularning nomlari Pekche aholisi tarkibida shakllanishga asos bo'lgan deb hisoblanadi. Yapon tarixiy manbalariga ko'ra, Pekchening asoschisi sifatida Tonmyon ko'rsatilgan, va Xitoy yilnomalaridan biri - "Chjou shu" ga ko'ra, Kutxe nomli shaxs (Puye vani Vi Kutxe) Pekche davlatiga asos solgan. Pekche davlati III asrda shakllanishi haqida yoziladi, va uning hukmdor sulolasi Puye nasabiga ega bo'lgan. Pekchada 8 ta zodagon urug'idan biri bo'lib, Xe, Sa, Yon, Xyon, Chin, Kol, Pek va Mok urug'lari bor edi.

Silla davlati hukmdorlari, asosan, Pak, Sok, va Kim sulolalaridan kelib chiqqan. Dastlab Pak Xyokkose (Sillaning birinchi hukmdori) davrida (avv. 57 - milodiy 184 yillar) Silla asosiy kuchlardan biri bo'lmagan. Shu bilan birga, Sillaning raqiblari bo'lgan Koguryo va Pekche bilan doimiy urushlar va ittifoqlar o'rnatildi.

Birlashgan Silla davlati o'rniga Koryo sulolasi (918-1392 yy.) kelgan. Koryoning poytaxti Sonak shahri bo'lib, bu shaharda Van Gon tug'ilgan. Mazkur shahar keyinchalik Kegyon (zamonaviy Keson shahri) deb nomlangan Koryo davlati 918-934 yillarda Van Gon tomonidan tashkil etilgan va uning markazlashgan davlat qurishdagi strategiyasi ko'plab ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi[3]. Van Gon mahalliy zodagonlar bilan do'stona aloqalar o'rnatib, ularni vassal sifatida saqladi va harbiy qo'shinlarni tashkil qilish imkoniyatlarini berdi. Bu markazlashgan hokimiyatni mustahkamlashga yordam berdi. Yangi sulolalar va yuqori lavozimlar egalari turli davlat xizmatlarida keng imkoniyatlar yaratildi, shu bilan birga, hukmdor zodagonlar bilan qarindoshlik rishtalari orqali ijtimoiy tizimni mustahkamlashga harakat qilindi. Van Gonning ko'p xotinlari va qarindoshlik aloqalari ijtimoiy hierarxiyaning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. U o'z qarindoshlari va yuqori martabali xonadonlardan bo'lgan ayollarni turmushga bergan, shu bilan oilaviy ittifoqlarni kengaytirgan.

Koryo davlati yuqori martabali zodagonlar uchun "yem ish okruglar" tizimi, erkin fuqarolar (dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar) uchun esa cheklangan erkinlik bilan bir qatorda, ijtimoiy sinflar tizimini shakllantirgan. Ijtimoiy sinflar tizimida chxonitilar yoki past tabaqa aholisi, asosan qullardan iborat edi. Davlat qullari nisbatan yaxshi sharoitlarga ega bo'lsa-da, ular o'z vazifalarini bajarishda ma'lum bir erkinlikka ega emasdi. Koryo davlati ijtimoiy qatlamlar va merosiy aristokratiya tizimini kengaytirish va kuchaytirishga harakat qilgan. Koryo iqtisodiyoti ham markazlashgan davlat tuzilishi bilan bog'liq holda rivojlandi. Davlat yerga bo'lgan monopoliyasini yaratgan va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Yerlar davlat tasarrufida bo'lib, soliqlarni to'lash va boshqarish tizimi mustahkamlandi. Urush davrida yigilgan resurslar tinchlik davrida qayta ishlanib, dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash uchun sarflangan.

Bundan tashqari, Koryo iqtisodiyotida ichki va tashqi savdo muhim o'rin tutgan. Asosiy savdo sheriklari Xitoy, Yaponiya va boshqa qo'shni xalqlar bilan bo'lgan. Koreya, asosan, ipak, g'alla, jang qurollari, farfor va boshqa mahsulotlar bilan savdo qilgan. Shuningdek, pul tizimi rivojlana boshladi, ammo har bir hududda pul muomalasi va to'lov usullari turlicha bo'lib, bu iqtisodiy tizimning murakkabligini ko'rsatadi. Koryo davlati markazlashgan siyosiy va ijtimoiy tuzilmani yaratgan bo'lsa-da, uning davomiyligi va kuchi ijtimoiy tabaqalarning o'zaro aloqalariga va iqtisodiy tuzilishga bog'liq bo'ldi. Koryo davlati nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham rivojlanib, yangi iqtisodiy tizimlar va savdo aloqalari orqali mamlakatning mustahkamlanishiga yordam berdi[4].

Koreyaning mustamlaka davri 1910-1945 yillarni o'z ichiga oladi, bu davrda Koreya Yaponiya tomonidan boshqarilib, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmalari butunlay o'zgardi. Bu davrda Koreyaning iqtisodiy resurslari va insoniy kapitali asosan Yaponiya manfaatlariga xizmat qildi, va Koreya xalqining o'zlikni saqlashga bo'lgan harakatlari, ayniqsa, bu davrda bosib o'tilgan. Biroq, bu davrning har bir jihatini ko'rib chiqishda, Yaponiya o'z siyosatida ikki asosiy maqsadni ko'zlaganini tushunish muhimdir Koreyani iqtisodiy va madaniy jihatdan yaponlashtirish va Koreya resurslarini o'z foydasiga ishlatish. Mustamlakachilikning asosiysi Koreyaning iqtisodiy va madaniy zaiflashishiga olib keldi. Yaponlar Koreya yerlarini kengaytirish va resurslarni olish uchun yerli aholining ko'plab ozodliklarini cheklab, o'z ishchi kuchini Koreyaga olib keldilar. Shu bilan birga, Koreya xalqining tarixi, tili, va madaniyati kamaytirilishi va yaponlashtirilishi uchun qattiq siyosat olib borildi. Ko'plab koreyaliklar o'z tilini va madaniyatini saqlab qolish uchun qarshilik ko'rsatdilar, ammo bu qarshiliklar asosan repressiyalar va qattiq jazolar bilan bartaraf etildi.

Koreyaning ozodligi va bo'linishi haqida gapirganda, bu jarayonlar mutlaqo yangi geosiyosiy va ideologik holatlarni yuzaga keltirdi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng, Koreya ikki qismga bo'linib, janubda AQSh va shimolda Sovet Ittifoqining ta'siri ostida bo'ldi.

Bu ikki blokning ideologik ziddiyatlari Koreya urushining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Urushning o'zi 1950 yilda boshlangan bo'lib, u bir necha yil davomida davom etdi va minglab kishilarning hayotini yitishiga olib keldi. Koreyaning bo'linishi, asosan, tashqi kuchlar AQSh va Sovetlar ittifoqining Koreyadagi manfaatlari asosida yuzaga keldi. Bu bo'linish Koreya xalqining kelajagi uchun salbiy oqibatlariga olib keldi. Har ikkala Koreya davlatida o'zlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari shakllandi: janubda kapitalistik tizim, shimolda esa kommunistik tuzum.

Bu farqlar, o'z navbatida, bugungi kungacha davom etayotgan doimiy ziddiyatlarga va yadro qurollari kabi xavfli holatlarga olib keldi. Shuningdek, Koreya bo'linishining ahamiyatini tahlil qilishda, ikki Koreyaning o'zaro aloqalari va jahon siyosatidagi o'rni ham ko'rib chiqilishi kerak. Shimoliy Koreya bugungi kunda totalitar rejimni davom ettirsa, Janubiy Koreya demokratiya va iqtisodiy rivojlanishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ammo, bo'linishning o'ziga xos noaniqliklari va hal qilinmagan muammolar, masalan, Koreya yarimorolidagi xavfsizlik vaziyatlari, Koreyaning birlashishi imkoniyatlarini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, Koreyaning bo'linishining bugungi kundagi ta'sirlarini tahlil qilishda xalqaro siyosatning ahamiyatini ham unutmang. Xitoy, Rossiya, AQSh va boshqa global kuchlar Koreya yarimorolidagi vaziyatga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish Koreya urushining tarixiy kontekstini to'liq tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, Koreyaning mustamlaka davri, Koreya urushi va bo'linishi haqidagi tahlilni holisona va tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish, shu davrning nafaqat Koreya uchun, balki jahon siyosati uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Bu davrni to'liq tushunish, hozirgi kunda Koreya yarimorolining tinchlik va xavfsizlikka ta'sirini baholashda muhimdir.

Koreyaning davlatchilik tarixi uning siyosiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishini belgilagan murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi Choson va Uch Qirollik davri Koreyaning ilk davlatlashuv tajribalarini namoyon etib, milliy o'zlikni shakllantirishga zamin yaratgan. Shu bilan birga, Koryo va Choson sulolalari davlatning markazlashuvi va boshqaruv tizimlarini rivojlantirgan, bu esa iqtisodiyot va madaniyatning yangi bosqichga ko'tarilishiga imkon bergan.

Mustamlaka davri Koreya tarixining eng og'ir davrlaridan biri bo'lib, iqtisodiy va madaniy zaiflashishga olib kelgan, ammo milliy ozodlik uchun harakatlarni kuchaytirgan.

Koreyaning bo'linishi esa tashqi kuchlar o'rtasidagi geosiyosiy ziddiyatlar natijasi bo'lib, bu xalqning birligini buzdi va ikki davlatning qarama-qarshi rivojlanish yo'liga olib keldi.

Bugungi kunda Janubiy Koreya iqtisodiy va demokratik taraqqiyotda yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, Shimoliy Koreya avtoritar boshqaruvni davom ettirmoqda. Ushbu tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Koreyaning siyosiy barqarorligi va birlashish imkoniyatlari ko'p jihatdan xalqaro munosabatlar va ichki siyosiy islohotlarga bog'liq. Bu murakkab jarayonlar Koreya yarim orolining Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi va uning kelajagini belgilaydi.

REFERENCES

1. Xan V. S. Koreya tarixi, Toshkent-2013, «Baktria press». B-14-18.
2. Michael J. Sethning A Concise History of Korea: From Antiquity to the Present (4th Edition, 2024)4-nashri 2024-yilda Rowman & Littlefield Publishers, 1bob, B- 6-12.
3. Xan V. S. Koreya tarixi, Toshkent-2013, «Baktria press». B-28-30.
4. Xan V. S. Koreya tarixi, Toshkent-2013, «Baktria press». B-48
5. Мурадов, Х. (2023). ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/8). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>

6. Murodov Halim Salimovich. (2023). BUXORO TURIZMI VA MILLIY HUNARMANDCHILIK. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 93–96. Retrieved from <https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/149>
7. Salimovich, M. H. (2024). The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism. *Miasto Przyszłości*, 45, 729–735. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2725>
8. Halim, M. (2024). MUSTAQILLIK ARAFASIDA O ‘ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, 1(1), 19-23.
9. Muradov Halim Salimovich, (2024). The Role of Bukhara in Tourism Relations of Uzbekistan with Europe. “Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education” jurnali
<https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/2752/3111>
10. Halim Murodov. BUXORO TURIZMI XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDAGI IJOBIY O’ZGARISHLAR (2000-2016 yillar misolida). (2024). *MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE*, 2(12), 132-138. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/8837>